

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BIZNES BOSHQARUVIDAGI AHAMIYATI

Yaxshiyeva Muxlisa Dilshod qizi

Qarshi Davlat Texnika Universiteti, Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti, Iqtisodiyot yo'nalishi 2-kurs talabasi

Xamrayeva Sayyora Nasimovna

Ilmiy rahbar:

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining biznes boshqaruvidagi o'rni va ahamiyati, raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarda boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishdagi roli yoritilgan. Sun'iy intellektning axborot almashinuvi, muloqot hamda ijtimoiy jarayonlardagi roli tahlil qilindi. Shuningdek, uning afzalliklari, undan foydalanishda yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari ko'rib chiqilgan. Maqola sun'iy intellektdan samarali va ongli foydalanish masalalarini yoritishga qaratilgan va bir nechta biznes g'oyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: -Sun'iy intellekt, texnologik vositalar, raqamli iqtisodiyot, OpenAI, yirik kompaniyalar, biznes g'oyalar

Annotation: This article highlights the role and importance of artificial intelligence technologies in business management, as well as their role in optimizing management processes in enterprises in the context of the digital economy. The role of artificial intelligence in information exchange, communication, and social processes is analyzed. In addition, its advantages, the problems arising from its use, and their possible solutions are discussed. The article is aimed at explaining the effective and conscious use of artificial intelligence and presents several business ideas.

Keywords: Artificial intelligence, technological tools, digital economy, OpenAI, large companies, business ideas.

Аннотация: В данной статье освещается роль и значение технологий искусственного интеллекта в управлении бизнесом, а также их роль в оптимизации управленческих процессов на предприятиях в условиях цифровой экономики. Проанализирована роль искусственного интеллекта в обмене информацией, коммуникации и социальных процессах. Кроме того, рассмотрены его преимущества, проблемы, возникающие при его использовании, а также пути их решения. Статья направлена на раскрытие вопросов эффективного и осознанного использования искусственного интеллекта и содержит несколько бизнес-идей.



Ключевые слова: *Искусственный интеллект, технологические средства, цифровая экономика, OpenAI, крупные компании, бизнес-идеи.*

KIRISH

Globalashuv jarayoni keskin rivojlangan bugungi davrda sun'iy intellektga bo'lgan talab katta. Bugungi kunga kelib jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt tizimlarining jadal rivojlanmoqda, shuningdek biznes boshqaruv jarayonlariga sezilarli darajada o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Raqamli texnologiyalarining keng qo'llanilishi natijasida iqtisodiy faoliyatni tashkil etish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish ko'plab qulayliklarni yuzaga keltirdi va yangi imkoniyatlarni ochib berdi.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib shuni ayta olamizki, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy biznes boshqaruvining muhim jarayonlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda, shuning natijasida rivojlanishga katta hissa qo'shishi bilan birga, agar oqilona foydalanilsa nafaqat ichki raqobat, balki tashqi boshqa davlatlar bilan raqobatbardoshlikni oshirmoqda.

Bugungi kunda ko'plab yirik texnologik kompaniyalar, shu jumladan Google, Amazon va Microsoft o'z faoliyatida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanib, boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, mijozlar ehtiyojlarini tahlil qilish va ularga qulaylik yaratish, hamda biznes samaradorligini oshirishga erishmoqda.

Bu esa sun'iy intellekt texnologiyalarining biznes muhitida nafaqat innovatsion vosita, balki strategik rivojlanish omili sifatida ham foydalansa bo'ladigan muhim vosita ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar faoliyatini samarali boshqarish, bozor o'zgarishlariga tez moslashish hamda raqobatbardoshlikda chidamlilikni oshirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bilan birga bu texnologiyalar katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish, aniq prognozlar tuzish va optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyot o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalamoqchi bo'lsak, sun'iy intellekt, kompyuter tizimlarining inson aqliy faoliyatini takrorlash qobiliyatidir. Bu texnologiyalar yordamida dasturiy ta'minotlar, ma'lumotlar bazalari va analitik vositalar orqali katta miqdordagi ma'lumotlarni qayta ishlash va qarorlar qabul qilish jarayonlari avtomatlashtiriladi.

Raqamli iqtisodiyot esa, internet va axborot texnologiyalariga asoslangan iqtisodiy tizimlarni anglatadi. U iqtisodiy faoliyatlarning ko'p qismini raqamlashtirilgan formatda amalga oshiradi. Buning natijasida esa vaqt tejaladi, shaffoflik ortadi va bir qancha qulayliklar yuzaga keladi.



Sun'iy intellektning afzalliklari. Su'niy intellekt, monoton va takrorlanuvchi vazifalarni avtomatlashtirish orqali ishchi kuchini tejaydi va samaradorlikni oshiradi.

Masalan, mijozlarga xizmat ko'rsatish chat-botlari, avtomatik moliya hisobotlari va ishlab chiqarish jarayonlaridagi avtomatlashtirishlar bu sohada keng qo'llaniladi. 2024-yilning birinchi yarmida global moliya bozorida avtomatizatsiyalangan savdo hajmi 70% ga yetdi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari moliyaviy firibgarlikni aniqlashda samarali yordam beradi. Banklar va moliya institutlari sun'iy intellekt yordamida firibgarlikni aniqlash samaradorligini 50% ga oshirishmoqda.

Sun'iy intellekt yordamida reklama va marketing kampaniyalarini individuallashtirish darajasi oshdi. 2024-yilning birinchi yarmida individuallashtirilgan reklama xarajatlari global reklama xarajatlarining 60% ini tashkil etdi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi yangi ish o'rinlarini yaratadi. Misol uchun, 2024-yilning birinchi yarmida global miqyosda sun'iy intellekt texnologiyalari bilan bog'liq ish o'rinlari soni 10% ga oshdi.

Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanadigan startaplar soni yildan-yilga oshib bormoqda. 2024-yilning birinchi yarmida sun'iy intellekt bilan bog'liq startaplar global startaplar bozorining 25% ini tashkil etdi.

Bugungi avtomatlashgan zamonda biznesda raqobatbardosh mahsulotlar yaratish va undan foyda olish har qachongidan ham dolzarb masalaga aylangan.

Kompaniyalar innovatsiyalarni, xususan, sun'iy intellekt va mashinalarni o'z imkoniyatlariga ko'ra, xarajatlarni kamaytirish, sifat nazoratini kerakli darajada ushlab turish va bozorda hayotiylikni saqlab qolish uchun keng joriy qila boshladilar.

Jahon miqyosidagi AQSH va Xitoy kabi yirik o'yinchilar bu sohadagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilab oldilar. Bu mamlakatlar hukumatlari va kompaniyalari sun'iy intellekt texnologiyalari imkoniyatlarini birinchilardan bo'lib ko'rgan va ularni rivojlantirishga sarmoya kiritishga tayyor. Bu ChatGPT kabi mashhur OpenAI mahsulotlariga, shuningdek, yuzni aniqlashda Xitoyning ustunligiga olib keldi. O'zbekiston ham sun'iy intellekt natijalaridan foydalaniladigan davlatlar qatoriga kiradi.

Shuningdek, 2021-yilda marketingda sun'iy intellektning (SI) taxminiy bozor hajmi 15,84 milliard AQSh dollarini tashkil etdi.

Statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yildagi dastlabki prognozlarda marketingda sun'iy intellekt bozori 2028-yilga borib \$107.5 milliarddan oshishi kutilgan edi. 2025-yil oxiridagi yangilangan statistikalar esa bozor hajmi allaqachon \$47–52 milliard oralig'iga yetganini ko'rsatmoqda.

Shu sur'at saqlansa, 2028-yil uchun oldingi prognoz o'zini oqlashi, hatto undan yuqori natija kuzatilishi ehtimoli katta.



Sun'iy intellekt bilan bog'liq bir nechta biznes g'oyalari taklif qilishimiz mumkin. Ular turli sohalarda qo'llanilishi va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

1. Kompaniyalar uchun mijozlarga xizmat ko'rsatishni avtomatlashtirish maqsadida chatbot va virtual yordamchilarni yaratishimiz mumkin.

Buning natijasida mijozlar kompaniyadan minnatdor bo'ladi va mijozlarni ko'payishiga sabab bo'ladi.

Chunki chatbotlar 24/7 xizmat ko'rsatib mijozlar savollariga tez va aniq javob bera oladi, xarajatlarni kamaytiradi, bu esa mijozlarni jalb qilishni oshiradi.

2. Sun'iy intellekt yordamida shaxsiy moliyaviy maslahatchi yoki yordamchi yaratish.

Bu xizmat foydalanuvchilarga mablag'larini boshqarishda ko'maklashadi.

Buning natijasida foydalanuvchi ga qulaylik yarata oladi, uning xarajat va daromadlarini tahlil qiladi, maqsadli byudjet yaratish va ularni amalga oshirishda qo'llab-quvvatlaydi.

3. Shifokorlar va tibbiyot xodimlariga diagnostika va davolash bo'yicha yordam beradigan sun'iy intellekt dasturlarini ishlab chiqish. Shu orqali tibbiy ma'lumotlarni tahlil qiladi, kasalliklarni oldindan aniqlaydi va davolash usullarini taklif qiladi.

4. O'quvchilarning o'qish jarayonini tahlil qilib, ularga mos ta'lim resurslari va mashqlarni tavsiya qiladigan onlayn platformalar yaratish natijasida har bir o'quvchining qobiliyat va ehtiyojlariga mos keladigan o'qitish jarayonini taklif qilish, rivojlanish progressini kuzatib borish.

5. Sun'iy intellekt yordamida xodimlarni tanlash va ularning samaradorligini tahlil qiladigan platforma yaratish. Ishga qabul qilish jarayonini avtomatlashtirish, xodimlarning ishlash samaradorligini kuzatish orqali shaffoflik oshadi va tahlil qilish orqali kompaniya rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Ushbu g'oyalardan biri yoki bir nechtasini amaliyotga tatbiq etish orqali innovatsion va foydali biznes yo'nalishini yaratishingiz mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, sun'iy intellektdan oqilona va to'g'ri maqsadda foydalansak kelajakda sezilarli darajada ijobiy natija olishimiz mumkin.

Mazkur texnologiyalar jarayonlarni avtomatlashtirish, resurslardan samarali foydalanish hamda boshqaruv qarorlarini tez va aniq qabul qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, har qanday innovatsion texnologiyada bo'lgani kabi, sun'iy intellektdan foydalanishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatar va cheklovlarni ham inobatga olish zarur.

Masalan, mening fikrimcha, bir korxonaning rivojlanishiga sun'iy intellekt imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalansakda, lekin barcha korxonaning xodimlarining o'rniga robotlardan foydalanmasligi kerak, chunki texnologiyalar jadallashgan bu zamonda





odamlar tomonidan yaratilgan robotlar keyinchalik odamlarni boshqarish darajasiga olib bormasligimiz kerak.

Shuning uchun sun'iy intellekt tomonidan bajariladigan vazifalar ustidan inson nazoratini saqlab qolish zamonaviy boshqaruvning asosiy tamoyillaridan biri sifatida hisoblashimiz kerak.

Shuningdek, biznes jarayonlarida aniq strategik maqsadlarni belgilagan holda raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt yechimlarini to'g'ri tahlil qilish korxonalarining samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1) Russell, Stuart J.; Norvig, Peter.. Artificial Intelligence: A Modern Approach, 4th, Hoboken: Pearson, 2021. ISBN 978-0-13-461099-3.

Internetdan olingan manbalar:

2) <https://infocom.uz/articles/suniy-intellektning-raqamli-iqtisodiyotdagi-orni>

3) <https://infocom.uz/articles/suniy-intellekt-va-mashinani-organishning-biznes-jarayonlariga-tasiri-1>

